

JIGAR PATOLOGIYASIDA KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI

*Ilmiy Rahbari: Alfraganus universiteti
Klinik fanlari kafedrası assistenti
Maxmanazarov G'afur Axnazarovich
Alfraganus universiteti Tibbiyot fakulteti
Davolash ishi yo'nalishi 23-36-guruh
Talabasi **Ahmadjonova Nozima** va
23-38-guruh talabasi **Jumyazova Kamola***

Annotatsiya: Jigar kasalliklari, jigarining turli xil patologik o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, bu organning asosiy vazifalarini bajarishda muammolarni keltirib chiqaradi. Jigar organizmda oziq moddalarni hazm qilish, toksinlarni detoksifikatsiya qilish, oqsil ishlab chiqarish va boshqa muhim vazifalarni bajaradi.

Kalit so'z: gepatit, siroz, steatoz, jigar yetishmovchiligi, jigar o'smalari, Budd-Chiari sindromi,

Kirish: Gepatit — bu jigar yallig'lanishi bo'lib, turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi, eng ko'p tarqalgan shakllari virusli gepatitlar hisoblanadi. Quyida gepatitning 7 xil turi to'liq va qisqacha tavsifi bilan berilgan:

1. Gepatit A (HAV)- najas-orqal yo'l (iflos suv, oziq-ovqat orqali) yuqadi. Ko'pincha o'z-o'zidan tuzaladi. Oldini olish uchun vaksina qilinadi.
2. Gepatit B (HBV)- qon, jinsiy aloqa, onadan bolaga yuqadi. Davolash mumkin, ammo ba'zan surunkali bo'lishi mumkin.
3. Gepatit C (HCV)- asosan qon orqali (notoza igna, qon quyish) yuqadi. Maxsus dori (DAA)lar bilan davolash mumkin. Oldini olish uchun esa vaksina yo'q.
4. Gepatit D (HDV)- faqat gepatit B bo'lgan kishilarda paydo bo'ladi. Murakkab, cheklangan dori vositalari orqali davolanadi. Gepatit B ga qarshi vaksinatsiya orqali oldini olish mumkin.
5. Gepatit E (HEV)- Faqat najas-orqal yo'l (iflos suv orqali) yuqadi. Odatda o'z-o'zidan tuzaladi. Kasallanmaslik uchun toza ichimlik suvidan foydalanish kerak.
6. Alkogolli gepatit- surunkali spirtli ichimliklar iste'moli tufayli kelib chiqadi. Spirtli ichimliklarni to'xtatish, davolovchi dori vositalari orqali davolanadi.
7. Autoimmun gepatit- immun tizimi jigarga hujum qiladi. Kortikosteroid va immunosupressiv dori vositalari bilan davolash mumkin.

Asosiy qism: Jigar sirrozi - jigarining surunkali rivojlanib boradigan kasalligi; bunda jigar to'qimasi yallig'lanib, uning bir qismi biriktiruvchi to'qima bilan almashinadi. Jigarining o'tkir yallig'lanishi — gepatitda, uning B, C, D shakllarida, o'tkir gepatit

surunkali gepatitga aylanayotganda, bezgak, sil, zaxm, brutsellyoz kabi yuqumli kasalliklarda, o't pufagi va o't yo'llarining surunkali yallig'lanishida, turli kimyoviy moddalardan muntazam zaharlanishda, shuningdek, alkogolizm va boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Jigar sirrozi — sekin rivojlanadigan surunkali kasallik. Jigar sirrozi turlicha namoyon bo'ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog'liq; tekshirganda jigarining qattiqlashgani va funksiyasining buzilganligiga qaramay, kishi uzoq vaqt hech qanday xastalik alomatini sezmay yurishi mumkin. Kasallik zo'rayganda bemor darmonsizlanadi, ozib ketadi, ishtahadan qoladi, kekiradi, ko'ngli ayniydi, ba'zan qusadi, ichi ketadi yoki qotadi, qorni dam bo'ladi, tana xarorati ko'tariladi, qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi natijasida u ko'tariladi (istisqo), burni qonaydi, badani qichishadi, ba'zan sarg'ayadi; kamqonlik avjiga chiqadi; jigari va ayniqsa talog'i kattalashadi va qattiqlashadi.

Yog'li jigar – jigarda yog' to'planishi bilan tavsiflanadigan holat bo'lib, u jigar faoliyatini buzishi va salomatlikka salbiy ta'sir qilishi mumkin. Sog'lom jigar yog'dan holi bo'lsa ham, ayrim sabablarga ko'ra jigar hujayralarida yog' miqdori ko'payib, kasallikni keltirib chiqaradi. Yog'li jigar ko'p hollarda simptomlarsiz kechadi, ammo o'z vaqtida davolanmasa, surunkali kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Yog'li jigar kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar ko'pdir. Asosiy sabablar orasida ortiqcha vazn va semizlik alohida o'rin tutadi. Jismoniy faollik yetishmasligi va noto'g'ri ovqatlanish natijasida organizmda ortiqcha yog' to'planadi va bu jigar hujayralarini shikastlaydi. Qandli diabet, xolesterin miqdorining ortishi, yuqori qon bosimi va metabolik sindrom ham yog'li jigar kasalligining rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, alkogol iste'moli ham jigarda yog'lanishga olib keladi.

Yog'li jigar kasalligining oldini olish uchun ba'zi profilaktik choralar mavjud. Sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, va zaruriy shifokor ko'rigidan o'tish tavsiya etiladi. Ortqa vaznni kamaytirish va stressni boshqarish ham jigar sog'lig'ini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Alkogol va yuqori kaloriyalı mahsulotlarni cheklash, shuningdek, qon bosimini va qon shakarini nazorat qilish orqali jigar kasalliklarining rivojlanishini oldini olish mumkin.

Xulosa: Jigar kasalliklari profilaktikasi bo'yicha xulosa qilishda, quyidagi asosiy fikrlarni keltirish mumkin:

1. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish: Jigar kasalliklarining oldini olish uchun sog'lom turmush tarziga amal qilish muhimdir. Bu, to'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, sigaret va alkogolni cheklashni o'z ichiga oladi.

2. Insonning gigienik odatlari: Yuqumli jigar kasalliklaridan (masalan, gepatit) saqlanish uchun gigiena qoidalariga rioya qilish zarur. Qo'lni yuvish, toza suvdan foydalanish, shaxsiy gigiena vositalarini boshqalar bilan almashmaslik muhim.

3. Vaksinatsiya: Hepatit A va B kabi jigar kasalliklariga qarshi vaksinatsiya qo'llanilishi kerak. Bu profilaktika usuli kasallikning tarqalishini oldini oladi va odamni himoya qiladi.

4. Og'ir dorilar va kimyoviy moddalar bilan ehtiyotkorlik: Dori-darmonlarni faqat shifokor nazorati ostida qabul qilish, kimyoviy moddalar bilan ishlashda ehtiyotkorlikka rioya qilish kerak.

5. Tibbiy tekshiruvlar: Jigar kasalliklari tez-tez belgilersiz rivojlanadi. Shuning uchun muntazam ravishda tibbiy tekshiruvlar, ayniqsa, jigar faoliyatini baholash, zarurdir.

6. Jamoatchilikni xabardor qilish: Jamiyatda jigar kasalliklari haqida xabardorlikni oshirish va ularning profilaktikasi bo'yicha targ'ibot ishlari olib borish, kasallikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.А.Махманазаров “Изменения функционального состояния организма в динамике повседневной работы медицинской персонала, работающего с трупами” // “Медицинский журнал молодых ученых” //311-313-2025г

2. Г.А.Махманазаров “ОЦЕНКА ТЕМПЕРАТУРНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ СУДЕБНО–МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА”// “Медицинский журнал молодых ученых” // 2024г

3. “Jigar kasalliklari potomorfologiyasi” Z.E. Jumanov, J.M. Ismoilov

4. “Gastroenterologiya va jigar kasalliklari” S.B. Xolboyev, Sh.A. Xusinova, X.M. Raximova

5. “ENDOKRINOLOGIYA” S.I. Ismailov, Sh.U. Axmedova, Y.M. Urmanova, F.S. Xodjaeva